

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MULK HUQUQI”

Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya Ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning mulk huquqi, uning tushunchasi, turlari. O‘zbekiston Respublikasining mulk huquqining AQSH mulk huquqi bilan o‘rtasidagi farqining tahlili haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mulk huquqi, servitut huquqi, ommaviy va xususiy mulk, AQSH, xalqaro mulk huquqi indeksi.*

Mulk huquqi, huquq tizmidagi eng muhim huquqlardan biri hisoblanadi. Mulk huquqi – bu shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishini bartaraf etishini talab qilish huquqi hisoblanadi¹¹. O‘zbekiston Respublikasida mulk huquqi Konstitutsiya darajasida belgilangan va bu shuni anglatadiki O‘zbekistonda mulk huquqining o‘rni nihoyatda muhim. O‘zbekistonda Mulk huquqi muddatsizdir va u daxlsizdir. Mulkdorning mol-mulkini olib qo‘yishga faqatgina qonunda belgilangan hollardagin yo‘l qo‘yiladi va shuningdek sud qarori bilan. O‘zbekistonda mulkning ikki xil shakli bor:

1. Xususiy mulk
2. Ommaviy mulk

Davlat mulk shakllarini rivojlantirish uchun zarur huquqlarning tengligini ta’minlaydi va uning himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulk shakllarini bunday turkumshtirish uchun mulk subyekti maqomi va mol-mulk rejimining uzviy birligi asosiy mezon hisoblanadi.¹²

Xususiy mulk bu , shaxsning qonunchilikka muvofiq mulkga ega bo‘lishi, undan to‘lliqlik foydalanishi va uni tasarruf etishi. Xususiy mulkning subyektilari – jismoniy shaxslar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, ijtimoiy fondlar, kooperativlar, jamoat birlashmalari va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar hisoblanadi. Xususiy mulk obyekti qonun bilan taqiqlangan ashyolardan boshqa har qanday mol-mulk, ashyo bo‘lishi mumkin. Xususiy mulkning daxlsizligi to‘grisida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 65-moddasida belgilab qo‘yilgan: “Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas”¹³.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 13-bob. 164-modda.

¹² Fuqarolik huquqi, - T, TDYU. 2009. –B,393.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-bob. 65-modda

Xususiylashtirish bilan birga O'zbekistonda Ommaviy mulk ham yaxshi rivojlangan. Ommaviy mulk bu – Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan iborat bo'lgan davlat mulkidir. Ommaviy mulkning obyektlariga yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklari va boshqalar kiradi.

Huquqshunos olim I.B.Zokirovning fikricha, davlat mulki zarurligining obyektiv sabablari quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat organlarini shakllantirish;
2. Mamlakatning xavfsizligi va mudofaasini ta'minlash;
3. Ta'lim va madaniyatni ta'minlash;
4. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;
5. Tabiiy ofatlarga va favqulodda holatlar va oqibatlarini bartaraf etish;
6. Ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish.

Mamlakatimizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarib xususiylashtirishni yanada ko'paytirish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada yaxshilash maqsadida bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi, shular jumlasiga : “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1991-yil 19-noyabr 425-XII-son¹⁴ qarori qabul qilindi.

Xususiylashtirish — jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir. Ommaviy mulkni xususiylashtirish har bir davlatda bozor iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, mulk huquqida yana shunday, tushuncha mavjudki, o'zganing mulkidan cheklangan miqdorda foydalanish ya'ni servitut huquqi. Servitut huquqi bu – ko'chmas mulk (yer uchastkasi, boshqa ko'chmas mulk) egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa – boshqa yer uchastkasining egasidan ham o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqlidir.

Masalan, boshqa shaxsning yeridan piyoda va transportda o'ta olishni ta'minlash, elektr uzatgich, aloqa va quvur liniyalarini o'tkazish va ulardan foydalanish, suv bilan ta'minlash uchun, shuningdek ko'chmas mulk egasining ehtiyojlarini servitut belgilamay turib ta'minlanishi mumkin bo'lmagan boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun servitut belgilanishi mumkin.¹⁵

O'zbekistonning mulk huquqini baholash va undagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni Xalqaro mulk huquqi indeksiga (International Property Rights Index)¹⁶ a'zo bo'lishi kerak. Chunki, bu O'zbekistonning Xalqaro darajadagi o'rnini belgilaydi, shu o'rinda, O'zbekistonning mulk huquqini boshqa Xalqaro darajadagi mamlakatlarning mulk huquqi bilan taqqoslab , mamlakatimizning mulk huquqini yanada yaxshilash uchun kerakli tajribalarni olish.

¹⁴ www.lex.uz

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 13-bob. 173-modda.

¹⁶ <https://internationalpropertyrightsindex.org>

Mamlakatimizda mulk huquqining yanada rivojlanishiga yordam beradi. Endi mulk huquqi indeksida yuqori natijaga ega bo'lgan davlatlardan biri, AQShning mulk huquqini O'zbekistondan farqlarini ko'rsak, uning qonun manbalari, mulkka egalikning turlari va boshqalar:

AQSH – Anglo-Sakson huquqiy oilasiga kiradi. Bu huquqiy oilada sudyalari oldingi sud qarorlariga tayanib yangi ishlarni hal qilishadi. Federal va shtat kongresslari tomonidan qabul qilingan qonunlar mulk huquqi, shartnomalar va boshqa fuqarolik huquqi masalalarini tartibga soladi.

Sud qarorlari kelgusida ishlarni ko'rib chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. AQSHda sud pretsedenti “case law” deb ataladi va umumiy huquq tizmining muhim qismidir. AQSHda mulkka egalikning uch xil turi bor:

- ✓ Fee Simple Ownership: to'liq egalik, mulkni istalgan tarzda boshqarish
- ✓ Joint Tenancy: qo'shma egalik, birgalikda egalik qilish, ulushlardan biriga egalik qilayotgan eganing vafoti bilan keying ulush egasiga ulushning o'tishi.
- ✓ Life Estate: cheklangan egalik, bir shaxs faqat hayoti davomida mulkni boshqarish huquqiga ega.¹⁷

AQSHda mulkning turlari:

1.Real Mulk (Ko'chmas mulk)

Real mulk yer va unga bog'liq barcha narsalarni o'z ichiga oladi.bunga yer ostidagi resurslar va ko'chmas mobyektlar kiradi.

2.Personal Mulk(Ko'chma mulk)

Ko'chma va harakatlantirish mumkin bo'lgan narsalar.

Ikki turi bor:

1-An'anaviy shaxsiy mulk: Kundalik ehtiyojlar uchun narsalar(mashina ,jhoz, kiyim-kechak)

2-Moliyaviy aktivlar: bank hisoblari, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalar

3.Intellektual Mulk

Insonning ijodiy faoliyati natijasi sifatida shakllanadi. Uning turlari:

1-Patentlar: Texnik ixtirolar uchun huquqlar

2-Mualliflik huquqi: Adabiyot, musiqa san'atlarlari

3-Savdo belgisi: Kompaniya logotiplari yoki savdo belgilari

4-Tijorat siri: Korporativ ma'lumotlarning maxfiyligi.

Deed va Title huquqlari: Mulkning qonuniy hujjatlari, masalan, “title”(mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi hujjat) va “deed”(mulkni boshqa shaxsga o'tkazish hujjati). Intellektual mulkni ro'yxatdan o'tkazish AQSH Patent va Mualliflik idorasi orqali amalga oshiriladi (Legalboulevard yoki Avenuelawfirm).

Zonalashtirish qonunlari: Yerning maqsadli foydalanishini (masalan, yashash joyi, tijorat yoki qishloq xo'jaligi) aniqlashda ishlatiladi.

AQSHning mulk huquqi bo'yicha qonuniy manbalari:

¹⁷ <https://propertyrightsalliance.org>.

1.Federal konstitutsiya beshinchi va to'rtinchi tuzatishlari: mulkni noqoqnuniy olish yoki mulk huquqini cheklashdan himoya ;

2.U.S Code (AQSH konstitutsiyasi)¹⁸:

Title 15: Commerce and Trade: savdo belgilari, patentlar va intellectual mulk huquqlari bilan bog'liq qonunlar.

Title 16: Conservation: Tabiiy resurslar va ekologik muhofaza uchun qonunlar.

Title 26: International Revenue Code: Mulki bilan bog'liq soliq, masalan, ipoteka foizlari va mulkdan olinadigan soliq.

3.Sud pretsedentlari(Case Law)¹⁹

Uniform Commercial Code(UCC): Mulki sotish va shaxsiy mulk bilan bog'liq qonunlar bo'yicha yagona normalar.

Fair Housing Act²⁰: Ko'chmas mulk sohasida diskriminatsiya qilishni taqiqlaydi, shuningdek, uy-joy bozoridagi tenglikni himoya qiladi.

Real Estate Settlement Procedures Act(RESPA)²¹: Ko'chmas mulkni sotish va ipoteka bo'yicha protseduralarni tartibga solidi.

Yuqorida AQSHning mulk huquqining O'zbekistonning mulk huquqidan farqli jihatlari. Qolgan barcha jihatlari o'xshash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 13-bob. 164-modda.

2.Fuqarolik huquqi,- T, TDYU. 2009. –B,393.

3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-bob. 65-modda

4.www.lex.uz

5.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 13-bob. 173-modda.

6.<https://internationalpropertyrightsindex.org>

7.<https://propertyrightsalliance.org>

8.<https://uscode.house.gov>

9.<https://www.law.cornell.edu/uscode/>

10.<https://www.congress.gov>

11.<https://www.federalregister.gov>

¹⁸ <https://uscode.house.gov>

¹⁹ <https://www.law.cornell.edu/uscode/>

²⁰ <https://www.congress.gov>

²¹ <https://www.federalregister.gov>